



THE HISTORICAL AND POLITICAL ESSENCE OF LIBERALISM

Muborak Makhamatqulovna Shodmonqulova

Associate Professor of Gulistan State University

Email: muborakshodmonqulova@gmail.com

Gulistan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Liberal, renessans, islohot, individ, burjuaziya, boshqaruv, demokratik, faylasuf, sotsiolog, siyosat.

Abstract: In the article, the historical roots of liberal ideas, the views of the world scientists who put them forward, and today's formation and adaptation to the times were separately analyzed and explained.

Received: 19.11.25

Accepted: 20.11.25

Published: 21.11.25

LIBERALIZMNING TARIXIY-SIYOSIY MOHIYATI

Muborak Maxamatqulovna Shodmonqulova

Guliston davlat universiteti dotsenti

Email: muborakshodmonqulova@gmail.com

Guliston, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlari: Liberal, renessans, islohot, individ, burjuaziya, boshqaruv, demokratik, faylasuf, sotsiolog, siyosat.

Annotasiya: Maqolada liberal g'oyalarning tarixiy ildizlari, uni ilgari surgan dunyo olimlarining qarashlari va bugungi kunda shakllanishi va zamonga moslashuvi alohida taxlil qilindi va yoritib berildi.

ИСТОРИКО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ЛИБЕРАЛИЗМА

Муборак Махаматкуловна Шодмонкулова

Доцент Гулистанского государственного университета

Email: muborakshodmonqulova@gmail.com

Гулистан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Либеральный, ренессансный, реформаторский,

Аннотация: В статье отдельно и объяснены

индивидуальный, управленческий, философ, социолог, политика.	буржуазный, демократический,	исторические корни либеральных идей, взгляды выдвинувших их ученых мира, а также сегодняшнее формирование и адаптация к времени.
--	------------------------------	--

Kirish. Inosniyat taraqqiyotidan ma'lumki, liberalizm turli ijtimoiy-tarixiy va milliy madaniy sharoitlarda shakllandi, rivojlandi va qaror topdi. Shuning bilan birga liberalizm turli ko'rinishlarda, ya'ni g'oya, dunyoqarash shakllarida, siyosiy, iqtisodiy mafkura va siyosiy falsafa sifatida ham rivojlandi. O'z navbatida u konkret siyosiy tuzumlarda liberal amaliyot turlari va liberalizmning tarixiy an'analari tarzida ham farqlanadi.

Madaniy-tarixiy nuqtai nazardan liberal an'analari ikkiga bulinadi: anglo-sakson va kontinental-Evropa. Shuningdek liberalizm tarixan va mamlakatlarda qaror topgan turli shart-sharoitlarda asosiy g'oya va tamoyillarni tanlab olishiga qarab hamda dolzarbligiga ko'ra "an'anaviy" va "neoliberal" ko'rinishlarda ham namoyon bo'ladi.

An'anaviy liberalizm o'z vaktida g'arb mamlakatlarining gullab- yashnashi uchun zarur bo'lgan siyosiy va iqtisodiy shart-sharoitlar asoslarining yaratilishida muhim ro'l o'ynagan. XIX asrda liberalizmning anglosakson an'analari demokratik qadriyatlarning mustaxkamlanishi va konstitutsiyaviy qoidalarning rivojlanishi, baynalminallik erkin savdo shartlarini mustaxkamlash boralarida salmoqli ta'sir ko'rsatdi. Bu an'anaga xos muhim qadriyatlar va tamoyillarni siyosat olamida namoyish etgan Buyuk Britaniya liberal partiyasi keyinchalik XIX asrning ikkinchi yarmida ushbu mamlakat ikki etuk siyosiy partiyasining biriga aylandi. Saylov huquqini kengaytirish masalasi markaziy o'rin egallagan erkin bozor iqtisodiyoti hamda siyosiy tuzum islohoti uchun kurashgan liberallar 1867 va 1884 yillarda qabul kilingan saylov haqidagi qonunlar, ayniqsa, 1918 yildagi umumiy saylov huquqi haqidagi qonunning qabul kilinishi munosabati bilan jiddiy muvaffakiyatga erishdilar. Ishchilar sinfini uz tomoniga ogdirib olgan leyboristlar partiyasi siyosat saxnasiga chiqqandan keyingina liberallar uz mavKelarini asta-sekin yo'qota boshladil ar. 1940-1945 yillarda ular oxiriga marta hukumat ittifoqida ishtirok etgan edilar[1:303].

Liberalizmning kontinental-Evropa an'alarida asosiy urg'u milliy konsolidatsiya (birlashuv) jarayonlariga hamda iqtisodiy, siyosiy va intellektual avtoritarizmning barcha shakllaridan voz kechishga qaratilgan edi. Siyosiy rivojlanish davomida liberalizm bir-biriga qaram-qarshi bo'lgan "mo''tadil" va "progressits" timsolidagi ikki shaklda o'z qiyofasini o'zgartirdi. Bu shakllar u yoki bu mamlakatda iqtisodiy erkinlik konstitutsiyaviy islohotlar yoki davlatni cherkovdan ajratishni ta'minlash muammolarining dolzarbligiga bog'liq edi. Evropada liberalizm milliy uzlikni anglash, bir-biriga etnomadaniy nuqtai nazardan yaqin bo'lgan Tarqoq davlatlarning birlashish yoki aksincha, imperiyalarning parchalanish va mustaqil davlatlarning

tashkil topish jarayoni bilan parallel tarzda rivojlandi. Ko'p holatlarda liberalizm safarbar etuvchi kuch, siyosiy faollik manbai sifatida namoyon bo'ldi.

Xo'sh, liberalizmning kuchi nimada? degan savol tug'iladi. Uning kuchi, eng avvalo, ijtimoiy dunyoqarash asoslarining teranligida. Liberalizm nazariyasining asosiy qoidalari (ta'limotlari va bosh g'oyalari) o'zining an'anaviy ko'rinishida gumanistik (insonparvar) dunyoqarash, "...bevosita Uyg'onish davri madaniyati, Ma'rifat, Frantsuz inqilobi ta'sirida qaror topdi va aynan shu tarzda erkinlik qoidalariga asoslangan liberal tsivilizatsiya sharoitida jamiyatning ijtimoiy tartiblari mohiyatini belgilab berdi"[2:3-5].

Liberalizm har qanday ko'rinishdagi totalitarizm, avtoritarizm va despotizmning muxolifi ekan, gumanizm - har qanday fanatizm, ritorizm (ma'naviyat masalalaridagi qonun-qoida va tamoyillarga so'zsiz va qat'iyan itoat etish), toqat qilolmaslik o'zgalar bilimi va nuqtai nazarini hurmat qilmaslikning muxolifidir.

Gumanizm - liberalizmning shart-sharoiti sifatida Uyg'onish davri (XY-XYI asrlar)da shakllana boshladi. O'sha davr gumanistlari inson shaxsining erkinligini e'lon kildilar, diniy tarkidunyochilikka karshi chikdilar, insonning hayotiy ehtiyojlarini qondirish huquqi ni himoya qildilar. Uyg'onish davri gumanistlarining yirik namoyondalari - Petrarka, Dante, Bokkachcho, Leonardo da Vinchi, Erazm Rotterdamskiy, Bruno, F.Rable, Monten, Kopernik V.Shekpsir, F.Bekon va boshqalar dunyoviy tafakkurning shakllanishida muhim rol o'ynadilar.

Ta'kidlash joizki, barcha liberal g'oyalar va tamoyillar chuqur tarixiy-falsafiy ildizga ega. Liberal falsafaning har bir kategoriyasi tortishuv va munozaralarning uzoq dialektik yo'lini bosib o'tdi. Shuning uchun ham liberalizm o'zining hayotga tatbik etilishida bugun bir dunyoqarash rivojlanishining manbaiga aylandi, G'apb tsivilizatsiyasi gullab-yashnashining asosi bo'lib xizmat qildi. Mana shu joyda faylasuf ta'kidlaydiki, ijtimoiy tabiatning ob'ektiv mavjud qonunlarisiz insoniyat hamjamiyati mavjud bo'lolmaydi. Ayniksa, shartnoma va bitimlarga sodiklik nuqtai nazaridan. "Qonun bo'lmasa, xalol ish uchun na maqto'v bor, na illat va na saxovat egalari, bema'ni ish uchun esa na jazo bo'ladi: u erda na ayb va na mas'uliyat bo'ladi. Hamma narsa inson amriga buysundiriladi. Agar insondan hech narsa talab kilinmasa, demak u shaxsiy lazzat va manfaatga ixlos kurgan yoki har kanday instinkt qoidalaridan xoli, erkin va kurlik bilan mashel bo'lishga majbur bo'lgan; adolat va haqiqat puch gapga aylangan, umuman, kuruk gapdan boshqa hech narsa kolmagan bular edi. O'z xatti-harakatini mutlaq erkin va bosh haqami bo'lgan inson o'zini aybdor deb hisoblamaydi, negaki hech bir qonun biror narsaga egalik qilish huquqini bermaydi va hech narsani taqiqlamaydi" [3:8-9].

Ko'rinib turibdiki, J. Lokk inson erkinligi haqida gapirganida uning mas'uliyatini xis etadigan va undan ongli ravishda foydalanadigan ob'ektiv, tabiat qonunlariga buysungan tabiiy hodisa, deb qaraydi. Tabiat qonunlari deganda ob'ektiv ravishda qaror topgan yoki insoniyat erkini

saqlab qolish elementlari sifatida jamiyatga xos va zarur bo'lgan ma'naviyat, axloq etika, ijtimoiy munosabatlar asosi va insoniyat ruhiyati qonuniyatlari tushuniladi. Bu qonuniyatlarsiz insoniyat jamiyatining rivojlanishi mumkin emas. Bugungi kun nuqtai nazaridan kandaydir ma'noda, masalan, u dindan farkli ularoq nafaqat e'tikod mexanizmlari orqali haqiqat uchun kurashdi, balki jamiyat taraqqiyotining istiqboliy yo'llarini atroflicha isbotlab beruvchi inson borligining ob'ektiv ilmiy asoslarini topishga harakat qildi, deb e'tirof etish mumkin.

E'tiborli joyi shundaki, angliyaliklarning XIX asr o'rtalaridagi ma'muriyat yoki qonunning inson shaxsiy hayotiga aralashuviga nisbatan an'anaviy e'tirozlari siyosatshunos olim tomonidan shaxs erkinligiga hurmat sifatida talkin kilinmagan, balki eskidan hukumatning jamiyat manfaatlariga dushmanlarcha qarash odatining yo'qolmaganligi natijasi sifatida qaralgan.

“Inson jamiyatidagi har kandy tabiiy organizmga xos bo'lgan o'sish, rivojlanish va shakllanysh tendentsiyalari ongli mavjudotlar hamjamiyatini xarakterlaydigan eng asosiy element - inson erkinligi (shuning uchun ham o'zining organikasiga ko'ra jamiyat erkin tarzda xiyla va nayrang qilsa bo'ladigan narsa emas) orqali amalga oshiriladi. Shundagina o'sish, rivojlanish va shakllanish tendentsiyalari o'z-o'zidan tabiiy tarzda tatbik etiladi”[4:303], -deb yozadi klassik liberalizmning asosiy g'oyalari haqida hozirgi zamon rus faylasufi S.S. Alekseev. Bunday g'oyalarning rivojlanishi siyosiy partiyalar va harakatlarda, birlashgan liberal dunyoqarash egalari mamlakatlaridagi siyosiy va iqtisodiy munosabatlarda o'z aksini topmasdan qolmadi.

Rossiyalik olimlar V.N.Kudryavtsev va E.A. Lukasheva qayd qilganlaridek: “Individualizm-liberal jamiyatning shioriga va klassik liberalizmning etakchi g'oyasiga aylandi... Insonni feodal davlatga batamom tobe qilgan, jamoa, tsex, korporatsiya va boshqalarga uni butunlay singdirib yuborgan holat o'rniga kirib kelgan individualizm tamoyili ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy rivojlanishning qudratli kuchiga aylandi. Shaxsning ijodi, o'ziga xosligi va o'z taqdirini o'zi hal qilishi uchun sharoit yaratdi, uning avtonomiyasini belgilab berdi”[5:61]. Shu bilan klassik liberalizm o'zining keyingi ko'rinishlaridan farq qiladi. Haqiqatan ham, individualizm klassik liberalizm uchun ustuvor qadriyatga aylandi (keyinchalik unga nisbatan munosabat o'zgardi). Shuning bilan birga mazkur g'oya mualliflari va tarafdorlarining barchasi tenglik tamoyilining buzilishiga olib kelidigan cheklanmagan individual erkinlikka yo'l quymaslikni ogohlantirgan edilar. Ular liberalizmni cheklanmagan, vulgar talqindagi erkinlik, anarxiya (boboshdokdik) bilan almashtirishning oldini olishga har tomonlama harakat qildilar. Individualizm “har kim o'zi uchun” yoki «mendan keyin cho'kib ketmaysanmi» printsipi bilan uyg'unlashib ketishi kerak emas.

Klassik liberalizm mualliflari bunday rivojlanishning xatarli ekanligini, induividualizm liberal g'oyasining egotsentrizmga aylanib ketishiga umuman yo'l quymaslik kerakligini ham ogohlantirganlar. Xususan, A. Tokvil dunyodagi barcha narsalarga har bir kishi o'z manfaati

nuqtai nazaridan yondashsa, hatto inson o'z oilasi doirasida tashqi olamdan tamoman ajralib, meshchanga (manfaatparast ma'nosida) aylangan taqdirda ham jamiyat tashvishlari unutiladi. Inson jamiyatida sodir bulayotgan yaxshi-yomon voqealarning passiv kuzatuvchisiga aylanadi[6:373-374]. Aynan shunday mavqeni egallash hokimiyatga u yoki bu zulmkor kuchning kelishiga sabab bo'ladi. Aynan shu mavqe keyinchalik "kuchlining huquqi" yovvoyi falsafasini vujudga keltiradi.

Afsuski, bugun ommaviy tushunchada liberal individualizmni egoizm va tajovuzkor shaxsiyatparastlik bilan almashtirish qarashlari ko'p holatlarda hukmronlik qilmokda. Ko'pchilik shuning bilan birga mahalla turmush tarzi tamoyillari va musulmon jamiyatidagi jamoa qadriyatlari bilan individualizm to'g'ri kelmaydigan tushuncha, deb hisoblaydilar. Agarda ortodoksal jamiyat yoki ruhoni davlat xususida gap ketadigan bo'lsa, balki bu fikr to'g'ridir. Biroq ma'naviy hayotning ma'lum bir qismini din tashkil etadigan dunyoviy davlat to'g'risida gap boradigan bo'lsa, u holda bu fikr to'g'ri emas. Individualizm jamoa qadriyatlarini inkor etmaydi. Faqat u jamoa tabiatiga boshqa nigoh bilan qarashga majbur qiladi, ya'ni jamoa har bir a'zosi individining o'zaro hurmati, shuningdek abstrakt (mavhum) jamoa emas, balki uning haqiqiy a'zosining mas'uliyatini ifoda etgan o'ziga xos shartnomaga so'zsiz amal qilish ana shu jamoachilik qal'asining tayanchi hisoblanadi.

Hozirgi jamiyatda mutlaq ma'noda individuallik va jamoachilikning ustivor bo'lishi mumkin emas. Ikkalasi ham zararli tendentsiyadir. Kaysidir holatlarda jamoa, qaysidir holatlarda esa shaxsiy manfaatlar ustun bo'lishi mumkin. Individualizm va jamoachilik nisbatining differentsiatsiyalangan tizimi liberalizm va konservatizm qadriyatlari hamda tamoyillarining o'zaro uyg'unlashib ketganligining natijasidir. Tabiiyki, agarda bu ikki yo'nalish bir xilda mafkuraviy mavqeda bo'lsa, bir hil darajada yoyilgan va nazariy rivojlangan bo'lsa. Bu erda F.Xayekning individualizm falsafasining mohiyatiga dobr aytgan mashhur fikrini keltirish mumkin. Uning fikricha, individualizm "shaxsga nisbatan hurmat, ya'ni, har bir insonning uz faoliyati doirasidagi qarash va tuyg'ularini ular qanchalik tor bo'lmasin, mutlaq ustuvor sifatida tan olish, shaxsey salohiyat va moyilliklarini rivojlantirishga oid e'tiqodlarini e'tirof etish"[7:183] demakdir.

Aytish mumkinki, liberalizm inson hayotining zaruriy sharti. Iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy fikrning demokratik muqobilliklariga nisbatan tizimiy-tashkiliy boshlanish, inson erkinligi, ongi va uning butun borligi universal bo'lganidek liberalizm ham universal hodisadir. U dunyoning har bir nuqtasida siyosiy jaholat va o'rta asrchilikka karshi kurashda qo'llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гаджиев К.С. Введение в политическую науку. -Москва.: Логос, -1997. -373-374 стр.; Алексеев С.С. Философия права. — Москва.: Норма, 1997. -303-стр (330 с.)

2. Локк Ж. Сочинения: 3 жилдлик. 3-жилд. -Москва.:Мысль,1988. -С.3-5 (668 с.).
3. Локк Ж. Сочинения: 3 жилдлик. 3-жилд. -Москва.:Мысль, 1988. -С. 8-9.
4. Алексеев С.С. Философия права. Москва.: Норма, 1997. -С. 303.
5. Кудрявцев В., Лукашева Е. Индивидуализм или коллективизм? // Свободная мысль. - № 2. - 1996. -С. 61. (61-70).
6. Токвиль А. Демократия в Америке. -Момква., 1994. -С. 373-374.
7. Хайек Ф. Дорога к рабству // Новый мир. №7. -1991. -С. 183.